

HINDISTON TA'LIM XIZMATLARI BORASIDAGI TADBIRKORLIK TAJRIBASINI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH

Abdusattorov Sodiqjon

Namangan muhandislik-qurilish instituti

tayanch doktoranti (PhD)

sodikjonabdusattorov@gmail.com +998 97 960-09-90

Annotatsiya: Hindistonning ta'lim sohasidagi tadbirkorlik tajribasi O'zbekiston uchun bir qancha qimmatli saboqlarni beradi. Ushbu amaliyotlarni qo'llash va moslashtirish orqali O'zbekiston o'z ta'lim tizimini turli yo'llar bilan, jumladan, davlat-xususiy sheriklik, texnologiya integratsiyasi, inklyuziv ta'lim tashabbuslari, o'qituvchilar malakasini oshirish dasturlari va arzon xususiy ta'limni qo'llab-quvvatlash orqali yaxshilashi mumkin. Bu sa'y-harakatlar O'zbekistonga ta'lim sohasida yanada yaxshi natijalarga erishishga, ko'proq bolalar va yoshlarning sifatli ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishini va zamonaviy ishchi kuchi talablariga yaxshiroq tayyorlanishini ta'minlashga yordam beradi.


Kalit so'zlar: davlat-xususiy sheriklik, texnologiya integratsiyasi, inklyuziv ta'lim tashabbuslari, o'qituvchilar malakasini oshirish dasturlari, arzon xususiy ta'lim.

Hindistonda ham xususiy ta'lim tashkilotlari ta'lim xizmatlarini bozorida o'z orinlariga egalar. Internet manbaalaridan Hindiston maktabgacha ta'lim muassasalarining aniq tarmoqlar kesimidagi soni topilmadi. Biroq maktabgacha ta'lim bozorining hajmi bo'yicha qilingan prognoz ko'rsatkichlari orqali ham biz maktabgacha ta'lim va bolalar parvarish xizmatlariga bo'lgan talab oshayotganini ko'rishimiz mumkin.(1-rasm)

Unga ko'ra maktabgacha ta'lim sohasidagi bozor hajmi yiliga bir maromdagi 0.7-0.8 milliard dollar o'sishni ko'rsatib, 2028-yilga borib 8.4 milliard dollarga yetishi ko'zda tutilgan.

Xususiy maktab va universitetlarning davlat tashkilotlariga nisbatini ko'rib

chiqadigan bo'lsak, 2022-yilda¹ maktablarning 32.2% va 2023-yil holatiga² ko'ra universitetlarning deyarli 41% xususiy tashkilotlar hisoblangan. (2-rasm)



1-rasm. Hindistonda maktabgacha ta'lim va bolalar parvarish bozorining prognozi (2022-2028)³

Hindistonda ta'lim xizmatlari sohasida tadbirkorlik innovatsiyalar, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi va sifatli ta'limga bo'lgan talab tufayli sezilarli iqtisodiy foyda keltiradi.

Iqtisodiy o'sish va ish o'rinlari yaratish: Hindistonda ta'lim xizmatlari sektori iqtisodiy o'sishning asosiy omili hisoblanadi. Hindistondagi Ed-Tech sektori 2020 yilda 750 million dollarga baholangan va 2025 yilga kelib 4 milliard dollarga oshishi bashorat qilingan.⁴ Dekakorn (10mlrd dollardan yuqoriga baholanadigan yirik kompaniyalar)ga aylangan Byju's va Unacademy kabi startaplar nafaqat bevosita, balki o'qituvchilar va yordamchi xodimlarning keng

¹ <https://ezyschooling.com/parenting/expert/schools-teachers-students-statistics-2022?utm>


² https://en.wikipedia.org/wiki/List_of_universities_in_India?utm

³ <https://www.statista.com/statistics/1417258/india-preschool-and-childcare-market-size/?utm>

⁴ "A Review of Ed-Tech Sector in India", Abhishek Bansal¹, Shreyas Pophalkar², Chandni J. Vidani^{3*}, international Journal of Management Analytics (IJMA) Vol.1, No.1, 2023: 63-84

tarmoqlarini yaratish orqali minglab ish o'rinlarini yaratdilar.

Hukumat tashabbuslari va qo'llab-quvvatlashi: Hindiston hukumati tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha bir qancha tashabbuslarni amalga oshirgan, jumladan, 2021-yilda tashkil etilganidan beri 1000 dan ortiq startaplarga foyda keltirgan "Startup India Seed Fund Scheme" ni misol qilib keltirsa bo'ladi.⁵ Uning asosiy g'oyasi – prototiplar ishlab chiqish, mahsulot sinovlari, bozorga kirish va tijoratlashtirish uchun startaplarga moliyaviy yordam berishdir. 2023-yilda 30 ta "Skill India" markazlarining tashkil etilishi AI va robototexnika kabi ilg'or ko'nikmalarni o'rgatish, ishchi kuchini kelajakdagi talablarga tayyorlashga qaratilgan.⁶



2-rasm. Hindistondagi xususiy universitet va maktablarning ulushi⁷

Innovatsiyalar va texnologiya integratsiyasi: Hindiston ta'lim startaplari tobora ko'proq texnologiya va innovatsiyalarga e'tibor qaratmoqda. Bunga sun'iy intellektga asoslangan o'quv platformalari, shaxsiylashtirilgan ta'lim vositalari va ta'limni yanada qulayroq va qiziqarli qiladigan onlayn ta'lim resurslarini ishlab chiqish kiradi.⁸ "Raqqamli Hindiston" kabi tashabbuslar orqali raqqamli

⁵ <https://seedfund.startupindia.gov.in/>

⁶ <https://knnindia.co.in/news/newsdetails/knowledge-resource/india-to-set-up-30-country-specific-skill-centers>

⁷ Internet ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

⁸ <https://www.analyticssteps.com/blogs/entrepreneurship-india-2023-challenges-opportunities-and-growth>
www.tadqiqotlar.uz

iqtisodiyotga intilgan holda ushbu tendentsiyani qo'llab-quvvatlab, sektorda innovatsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantiradi.⁹

Bozorni kengaytirish va investitsiyalar: Ed-tech sektorining o'sishi katta investitsiyalarni jalb qiladi. Birgina 2024-yilning 1-yarmida Hindiston edtech sektori moliyalashtirishda 575 million AQSh dollari jalb qilindi. Ammo bu ko'rsatkich 2021-yildagi 5,37 milliard AQSh dollariga nisbatan sezilarli kamayishni ko'rsatyapti.¹⁰ Moliyalashtirish sohasidagi ushbu pasayish investorlarda foyda keltiruvchi va barqaror o'sishga ustuvorlik berishni ta'kidlovchi ehtiyotkor yondashuvni ko'rsatadi. Kapitalning bunday oqimi kengayishni yanada kuchaytirib, startaplarga kengroq bozorlarga chiqish va yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish imkonini berdi.

Ijtimoiy ta'sir va inklyuzivlik: Hindistondagi ko'plab ta'lim startaplari qishloq joylarida sifatli ta'lim olish kabi muhim ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan ijtimoiy tadbirkorlikka e'tibor qaratadi. Raqamli savodxonlik va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradigan dasturlar ijtimoiy tenglik va iqtisodiy inklyuziyaga hissa qo'shadi¹¹.

Umuman olganda, Hindistonda ta'lim sohasidagi tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy o'sishni va yangi ish o'rinlarini yaratishni, balki innovatsiyalar va ijtimoiy taraqqiyotni rag'batlantiradi va uni mamlakat iqtisodiy rivojlanish strategiyasining muhim tarkibiy qismiga aylantiradi.

⁹ "DIGITAL INDIA: Initiatives and Challenges", Dr. Abhishek Anand Guest Assist Professor T.N.B. College T.M. Bhagalpur University, IRJMSH Vol 10 Issue 1 [Year 2019] ISSN 2277 – 9809 (Online) 2348–9359 (Print)

¹⁰ <https://techstartups.com/2024/10/18/indian-edtech-startup-eruditus-raises-150-million-in-funding-at-a-3-billion-valuation/>

¹¹ "Entrepreneurship in India in 2023: Challenges, Opportunities, and Growth", Ashesh Anand, Apr 19, 2023 <https://www.analyticssteps.com/blogs/entrepreneurship-india-2023-challenges-opportunities-and-growth>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://ezyschooling.com/parenting/expert/schools-teachers-students-statistics-2022?utm>
2. https://en.wikipedia.org/wiki/List_of_universities_in_India?utm
3. <https://www.statista.com/statistics/1417258/india-preschool-and-childcare-market-size/?utm>
4. “A Review of Ed-Tech Sector in India”, Abhishek Bansal¹, Shreyas Pophalkar², Chandni J. Vidani^{3*}, international Journal of Management Analytics (IJMA) Vol.1, No.1, 2023: 63-84
5. <https://seedfund.startupindia.gov.in/>
6. <https://knnindia.co.in/news/newsdetails/knowledge-resource/india-to-set-up-30-country-specific-skill-centers>
7. Internet ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi
8. <https://www.analyticssteps.com/blogs/entrepreneurship-india-2023-challenges-opportunities-and-growth>
9. “DIGITAL INDIA: Initiatives and Challenges”, Dr. Abhishek Anand Guest Assist Professor T.N.B. College T.M. Bhagalpur University, IRJMSH Vol 10 Issue 1 [Year 2019] ISSN 2277 – 9809 (Online) 2348–9359 (Print)
10. <https://techstartups.com/2024/10/18/indian-edtech-startup-eruditus-raises-150-million-in-funding-at-a-3-billion-valuation/>
11. “Entrepreneurship in India in 2023: Challenges, Opportunities, and Growth”, Ashesh Anand, Apr 19, 2023
<https://www.analyticssteps.com/blogs/entrepreneurship-india-2023-challenges-opportunities-and-growth>